



YANGI O‘ZBEKISTON: ULUG‘ MAQSAD VA MUSTAHKAM ISHONCH



Ushbu ijtimoiy-siyosiy nashr o‘z oldiga qanchalik ulkan maqsad va rejalar qo‘ygani uning nomidan ham yaqqol ko‘rinib turibdi.

Haqiqatan ham, bugun O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda...

...Ana shunday ulug‘vor va tarixiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos ko‘zgusi bo‘lib maydonga chiqayotgan gazeta yurtimizdagi demokratik islohotlar, hududlardagi beqiyos bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarining ahamiyati hamda natijalarini xolis va haqqoniy yoritishga, aholi vakillari va jamoatchilik fikrini shakllantirishga, mavjud muammo va kamchiliklarni tahliliy materiallar orqali dadil ko‘tarib chiqib, axborot makonida munosib o‘rin egallashiga ishonchim komil.

Prezidentimiz Shavkat MIRZIYOYEVning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi jamoasiga tabrigidan



“Yangi O‘zbekiston” gazetasi 5 yoshda

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilgan tarixiy islohotlar bugun hayotimizni bezab turibdi. Bu o‘zgarishlarning har biri hayotimizga mazmun bag‘ishlab, xalqimizning ko‘ksini ko‘tardi, jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos soldi. Muhtaram Prezidentimiz 2021-yilda gazetamizga bergan tarixiy intervyusida aytganidek, bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Darhaqiqat, biz yangi davr odamlarimiz. Hayotimizning mazmuni ham, ko‘zlayotgan manzillarimiz ham, yashashdan maqsadimiz ham o‘zgacha.

Milliy Yo‘lboshchimiz Shavkat Mirziyoyev siyosiy iqtidoriga kelgan ilk kunlardan o‘zgarishlar boshlandi. Har bir islohotda inson qadri birinchi o‘ringa qo‘yildi.

Bugun keskin o‘zgarishlar kuzatilyotgan

zamonaviy dunyoda har bir davlat va milliy jamiyat uchun mafkuraviy yo‘l, yashovchan g‘oyalari juda zarur. Bularsiz rivojlanishning sira iloji, imkoni yo‘q.

To‘liq buyuk xalqimiz. Boisi, ana shunday murakkab sharoitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “YANGI O‘ZBEKISTON” G‘OYASINI ilgari surdi.

Endigi mulohazalarimiz ana shu qudratli g‘oyaning tadrijiy quvvati haqida bo‘ladi.

HAYOTBAXSH G‘OYA

2017-2018-yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayoti uchun juda katta tarixiy evrilishlarning boshlanishi hamda jadal rivojlanish davri bo‘ldi. Mana shu ikki yil mobaynida bugun biz erishgan olamshumul natijalarning tamal toshi qo‘yildi.

Navbat milliy yuksalishimizning keyingi bosqichiga ruhlantiruvchi kuch, qadriyat

tus berishga keldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu uyg‘onish kodini yuqorida aytganimiz — “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi bilan quvvatlantirdi.

Bu g‘oya zamirida xalqimiz ongida boshlangan o‘zgarishlar, kayfiyatidagi ko‘tarinki ruh, taraqqiy etishga bo‘lgan sog‘inchi intilish mujdasi bor edi. Umuman, jamiyatimiz shunday qudratli g‘oyaviy ustunga muhtojlik sezib turgan bir davrda

mamlakat qalbi ichra taralgan yuksalish ruhi ko‘pmillatli xalqimizni yagona maqsad yo‘lida birlashtirdi, jipslashtirdi.

Orzu-umidlarimiz, ezgu maqsadlarimiz jamlangan hayotbaxsh g‘oyaning dastlabki ifodalardan biri sifatida 2020-yilda “Yangi O‘zbekiston” gazetasi ta‘sis etildi. Tahririyatning asosiy vazifalari va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari nihoyatda ulug‘vor va keng ko‘lamli bo‘ldi.

Ularning barchasini umumlashtirib aytganda, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalqimiz hayoti farovonligini oshirish, xalqaro maydonda Vatanimizning obro‘-e‘tibori va nufuzini yuksaltirish yo‘lidagi siyosatimiz mazmun-mohiyati hamda uning natijalarini keng yoritishdan iborat edi.

Nashrimizning ilk soni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi jamoasiga yo‘llagan tabrigi bilan chop etildi. “Jamiyatimizda fikr va qarashlar rang-barangligi, so‘z va axborot erkinligini ta‘minlash, ma‘naviyat

va ma‘rifat targ‘iboti borasidagi g‘oyatda sharaflari yo‘lda tahririyat jamoasiga ulkan muvaffaqiyatlar va ijodiy faollik doimo yor bo‘lishini tilab qolaman”, deyilgan tabrik oldimizga qo‘yilgan juda katta mas‘uliyat hissini doimo anglatib turadi.

O‘sha kuni gazetamizda davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi ham e‘lon qilindi.

“Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”, deyilgan edi Murojaatnomada.

Qat‘iy ishonch bilan ayta olamizki, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi qonimizda buyuk ajdodlarimizdan meros yaratuvchanlik kodlarini uyg‘otdi.

Davomi 3-beta

Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

SAMARALI IJRO INTIZOMI – ISLOHOTLAR NATIJADORLIGINING MUHIM OMILI



Aholi hayot darajasi va sifatini yuksaltirish bo‘yicha islohotlarning natijadorligi ularni amalga oshirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosining samarali tashkil etilishiga bevosita bog‘liq.

Avvallari aynan rahbar xodimlarning shaxsiy javobgarlik tizimi mukammal bo‘lmagan natijasida berilgan topshiriqlar ijro etilmasligi yoki muddati o‘tib bajarilishi kabi holatlar kuzatilar edi.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan shaxsiy mas‘uliyat, mustahkam temir intizom va tashabbuskorlik tamoyillariga asoslangan mutlaqo yangicha tizim joriy qilingani ijro intizomini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maqsadli tizim, ta‘sirchan nazoratdan natija sari

Davlat hokimiyatining jamiyat oldidagi eng asosiy vazifasi aholi hayot darajasi va sifatini oshirishga doir islohotlar natijadorligini ta‘minlashdir. Bu esa bevosita ulami amalga oshirishga qaratilgan hujjatlar, qarorlari ijro etish bo‘yicha ijro intizomining qat‘iyiligi bog‘liq. Aynan davlat idoralari va tashkilotlardagi ijro intizomi holatidan kelib chiqib, har bir hudud yoki tarmoqning rivojlanish darajasiga baho berish mumkin.

Bugun Buxoro viloyati hokimligi tomonidan jiddiy o‘zgarishlar qilinmoqda. Jumladan, o‘tgan yillar mobaynida Buxoro viloyati hokimligida har bir rahbar va xodim tomonidan ijro intizomini yanada mustahkamlash bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllantirildi.

Davomi 2-beta

Sharh

MAHALLA JINOYATCHILIKDAN XOLI BO‘LSA

yurtimiz tinch, ishimizda UNUM VA BARAKA BO‘LADI

Keyingi yillarda mahalla institutini takomillashtirishga qaratilgan 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalarning vakolatlari kengaytirildi, moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Fuqarolarning o‘z mahallasida hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqani ta‘minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlar raqamlashtirildi. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash borasida o‘ziga xos tizim yaratilyapti.

Davomi 2-beta

Buyuk o‘zbek yo‘li

OQQAN DARYO OQMAY QOLMAS





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“Yangi O'zbekiston” gazetasi 5 yoshda

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” g'oyasi butun mintaqa bo'ylab keng quloq yozgan. Bularning barchasi jamlanib mintaqamizda ahillik va bag'rikenglik, o'zaro bog'liqlikda rivojlanish tendensiyalarini qaror toptirdi.



Salim DONIYOROV,
“Yangi O'zbekiston” va
“Правда Востока” gazetalari
bosh muharriri

Boshlanishi 1-betda

Bugun bizga havas qilayotganlar ko'p. Albatta, hasad qilguvchilar ham topiladi. Sababi inson tabiati shunday, besh qo'l barobar emas. Bu — aksioma.

Ammo tanqid ham foydali. Ulardan to'g'ri xulosalar qilib, bugun ortga qaytmas yo'limizdan dadil ildamlab borayotganimizning o'zi buyuk baxtimizdir.

E'TIQODLI XALQNING MURODI HOSIL BO'LADI

Yuqorida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2020-yil va kelgusi 5 yilda rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalish va vazifalarni belgilab olish maqsadlari aks etgan Murojaatnomasidan iqtibos keltirgan edik. Boisi, biz o'tgan yillar mobaynida hayotimizni va jamiyatimizni fidoyilik, farovon yashash istagi bilan mehnat qilib o'zgartirish o'ldik.

“Yangi O'zbekiston” g'oyasining hayotiy ifodalari haqida aytaymiz. Kezi kelganda yana bir aytaymiz bor: **e'tiqodli insonning, xalqning murodi hamisha hosil bo'ladi.**

E'tiqod o'zini o'zgartirishga qodirlik fe'li bilan uyg'un yetuklikdir. Bunga o'zimizda misollar ko'p. Masalan, g'oyaviy birdamligimiz. Biz Yangi O'zbekistonda qurish g'oyasi atrofida birlashdik. Orzumiz bitta bo'ldi, mushmi bir joyga urdik. Evrildik va o'zgardik.

Bu evrilish qanday bo'ldi? “Yangi O'zbekiston” gazetasi besh yillik



taxlamini birma-bir varaqlab, tahliiliy maqolalarni mutolaa qilib ana shu savolga javob topish mumkin.

2020-yillarda yozilgan maqolalar ruhi bugun zabt etilgan marralarga qanot bag'ishlagandek. Aytmoqchimizki, Prezidentimiz siyosiy nuqtadonlik bilan ilgari surgan tashabbuslar va yangi g'oyalar, maqsadlar oradan ko'p o'tmay, hayotda o'z ifodasini topdi.

Biz yaqin-yaqingacha Markaziy Osiyo davlatlari birdamligi yanada mustahkamlanishi haqida qayg'urar edik. Davlatimiz rahbarining alohida siyosiy irodasi tufayli Markaziy Osiyo hamjihatligi yangi bosqichga ko'tarildi. Qo'shni davlatlar bilan aloqalarimiz tubdan yaxshilandi. Chegaralar ochildi, bugun xalqlarimiz turli to'siqsiz bordi-keldi qila boshladi, xorijlik sayyohlar almashinuvda ham qulay muhit yaratilgan,

o'zaro savdo-sotiq masalalarida yengilliklar berildi va hokazo.

Yoki bir vaqtlar shaharlarda yo'lovchi tashish transportidagi muammolar haqida yozar edik. Bugun Toshkentda, viloyatlar markazida yo'lovchi tashish tizimida tub o'zgarishlar bo'ldi. Poytaxtimizda ishga tushirilgan yer usti metro yo'li, “Afrosiyob” tezyurar poyezdining olis viloyatlarga ham qatnovi yo'lga qo'yilgani, yuzlab elektrobuslar olib kelingani, o'zimizda elektromobillar ishlab chiqarila boshlagani, yangi yo'llar, ko'priklar qurilayotgani quvonarli, albatta.

Zamonning yaxshiligini qarangki, bugun ijtimoiy himoyaga ehtiyoji bor fuqarolarga, keksa, yolg'iz va parvarishga muhtoj kishilarga ijtimoiy xodimlar birlashtirilgan. Shunday bo'lishi haqida to'rt-besh yil avval o'yilab ko'rganimizdek o'zi?

Bunday misollarning adog'i yo'q. Aytmoqchi bo'lganimiz e'tiqodiy o'zgarish haqida edi. Samimiy muloqot va tizimli yaxshiliklar kishi e'tiqodini o'zgartirishga

qodir islohot. Prezidentimiz ana shu buyuklik siyosatini boshlab berganidan keyin xalqimizda bugungi hayoti va kelajagiga qat'iy ishonch, birgalikda Yangi O'zbekistonda barpo etish, Uchinchi Rennessans poydevoriga asos solish e'tiqodi paydo bo'ldi. Natijalar esa ko'z o'ngimizda...

YANGI MARKAZIY OSIYO RUHI

Ish stolimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston” kitobi turadi. Unda mamlakatimizning mintaqaviy siyosati haqida so'z yuritilgan ekan, jumladan, shunday deyiladi: **“Har birimiz qo'shnimizning yutug'ini — o'zimizning**

ham yutug'imiz, uning tinch va farovon hayotini — butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi, deb bilishimiz lozim”.

“Yangi O'zbekiston” g'oyasi shunday — bag'rikeng. Bu g'oya sarhadlar osha o'z so'zini aytmoqda, eng muhimi, qo'shnilarimizga ham mehri, shijoatli ruh

“ Nasrimizning ilk soni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi jamoasiga yo'llagan tabrigi bilan chop etildi. “Jamiyatimizda fikr va qarashlar rang-barangligi, so'z va axborot erkinligini ta'minlash, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti borasidagi g'oyatda sharaffi yo'lda tahririyat jamoasiga ulkan muvaffaqiyatlar va ijodiy faollik doimo yor bo'lishini tilab qolaman”, deyilgan tabrik oldimizga qo'yilgan juda katta mas'uliyat hissini doimo anglatib turadi.

bag'ishlamog'da. Pirovardida bugun ana shu ulug'vor g'oya asosida mintaqamizda “Yangi Markaziy Osiyo ruhi” paydo bo'ldi.

Buni oliy darajadagi e'tiroflar shukuhida ham qabul qilishimiz mumkin. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni mintaqada ishonchli ko'priklar o'rnatuvchi tashabbuskor, tinchlik elchisi deb atadi. Yevropa Kengashining sobiq rahbari Sharl Mishel esa O'zbekiston davlati rahbari mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo va hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ko'plab tashabbus va g'oyalar generatori bo'layotganini alohida qayd etgan edi.

Mana shu e'tiroflardan xulosa qilib aytish joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” g'oyasi butun mintaqa bo'ylab keng quloq yozgan. Bularning barchasi jamlanib, mintaqamizda ahillik va bag'rikenglik, o'zaro bog'liqlikda rivojlanish tendensiyalarini qaror toptirdi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, siyosiy iroda va birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli bugun Markaziy Osiyo qo'shnicilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanoqda.

Hech shubhasiz, mintaqamizdagi bunday mehri siyosat tarovati, avvalo, barchamizning birgalikdagi yutug'imizdir.

Bu bejiz emas. Tahlillardan ham ko'rinib turadi. Davlatimiz rahbari 2017-2023-yillarda mintaqamizda mamlakatlari manfaatli nuqtayi nazaridan jami 240 dan ziyod muhim va dolzarb taklif va tashabbuslarni, ezgu g'oyalarni ilgari surgani fikrimiz dalildir.

2024-yil 9-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga mintaqa davlatlari o'rtasidagi do'stlik, qo'shnicilik va o'zaro anglashuvni rivojlantirishdagi alohida xizmatlari uchun **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Faxriy nishoni** tantanali topshirilgani esa yuqoridagi barcha e'tiroflarni qat'iy mustahkamlaydi.

ENG KEKSA VA ENG YOSH

Yangi O'zbekistonda barpo etishda axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shunday erkin muhitda dunyoga kelgan “Yangi O'zbekiston” gazetasi mamlakatimizning amaldagi eng keksa nashri — “Правда Востока” gazetasi bilan bitta tahririyatda birlashgani zamirida ham katta ma'no bor.

Keyingi yillarda yurtimizda so'z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yo'lda keng imkoniyatlar berilmoqda. Shunday erkin muhitda dunyoga kelgan “Yangi O'zbekiston” gazetasi mamlakatimizning amaldagi eng keksa nashri — “Правда Востока” gazetasi bilan bitta tahririyatda birlashgani zamirida ham katta ma'no bor.



“ Yillar o'tyapti. Yuksalish yo'lidan bir zum ham ortga qaytganimiz yo'q. Bu yo'lda “Yangi O'zbekiston” g'oyasini qo'llab-quvvatlagan, taraqqiyot yo'lini mahkam tutgan xalqimiz hayotbaxsh g'oyani o'z tafakkuriga chuqur singdirib, kuchli iroda va buyuk e'tiqodi bilan birlashdi. Shu tariqa, bunyodkorlik ruhidagi g'oya butun xalqimizning qalbidan chuqur joy oldi, umummilliy harakatga aylandi. Chunki uning zamirida ulug' ajdodlarimiz, Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari, armonlari ham mujassam edi.

vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan, qolaversa, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotir.

108 yildan buyon chop etib kelinayotgan “Правда Востока” nashri o'z tarixiy yo'lda ne bir davrlar silsilasiga guvoh bo'lmadi deyisiz. Uning sarg'aygan har bir sahifasi tarix haqiqatlaridan so'zlab turadi. Xalqimizning

mashaqqatli hayot yo'lini uzoq yillik taxlamlariga jo qilgan.

Yangi davrda yashayapmiz, dedik. Inson qadri ulug'langan bugungi mamlakatimiz islohotlarini ana shu ikki gazeta birgalikda yoritib borayotgani zakiy o'quvchilarimizda shukronalik hissini uyg'otishi tabiiy, albatta.

Zero, bu Prezidentimiz olib borayotgan oliy insonparvarlik siyosatiga ham hamohanglik kasb etadi. Boisi, yangi O'zbekistonda keksa avlod vakillariga ehtirom ko'rsatish, o'tmishimizga hurmat hissi bilan qarab, to'g'ri xulosalar chiqarish har birimizning insoniy burchimizga aylangan.

INSON QADRI UCHUN, INSON BAXTI UCHUN!

Bugun “Yangi O'zbekiston” gazetasi 1344-soni qo'lingizda turibdi. Bu besh yillik mehnatimiz mahsulidir.

Har bir sonni tayyorlash jarayonida etalabdan tonggacha ish ketadi. Gazetachilik shunaqa, mehnati mashaqqatli, mas'uliyati og'ir. Bitta so'z ustida o'ylanadi, har bitta gap qayta-qayta tahrirdan o'tadi...

“ Aytmoqchi bo'lganimiz, “Yangi O'zbekiston” gazetasi tahririyati oldidagi mas'uliyat va vazifalar chandon yuksak. Chunki islohotlar sur'ati va shiddati tez. Ularning har birini keng mushohada qilib, mazmun-mohiyatini xalqimizga yetkazish, tahliiliy-tanqidiy ruhda maqolalarni tayyorlash professionalizm va fidoyilik talab qiladi.

2025-yil milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichiga o'tdik. Oldimizga “O'zbekiston — 2030” strategiyasini va unda belgilangan vazifalarni Atrof-muhitni asrash va “yashil”

YANGI O'ZBEKISTON: ULUG' MAQSAD VA MUSTAHKAM ISHONCH

iqtisodiyot yilida bajarishdek nihoyatda katta va ko'p maqsadlar turibdi.

Mamlakatimiz “yashil” taraqqiyot sari dadil qadamlarni qo'yimoqda. Prezidentimiz “Abu-Dabi Barqaror rivojlanish haftaligi” sammitidagi nutqida aytganidek, **bugungi kunda “yashil” taraqqiyot O'zbekistonda umummilliy harakat darajasiga ko'tarildi.** Mazkur yo'nalishda mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirib, Markaziy Osiyoni “yashil” iqtisodiy rivojlanish va “toza energiya” markazlaridan biriga aylantirish niyatidamiz.

Bu yo'lda bizga ruhiy qudrat, zo'r ilhom beradigan omillar ko'p. Maqolamiz avvalida muhtaram Prezidentimizning 2021-yilda gazetamizga bergan tarixiy intervyusidan iqtibos keltirgan edik. O'sha suhbatda davlatimiz rahbari “Yangi O'zbekistonda barpo etish — bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O'zbekiston — demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir”, deya alohida ta'kidlagani bizning bosh yo'limizni belgilab bergan.

Yillar o'tyapti. Yuksalish yo'lidan bir zum ham ortga qaytganimiz yo'q. Bu yo'lda “Yangi O'zbekiston” g'oyasini qo'llab-quvvatlagan, taraqqiyot yo'lini mahkam tutgan xalqimiz hayotbaxsh g'oyani o'z tafakkuriga chuqur singdirib, kuchli iroda va buyuk e'tiqodi bilan birlashdi.

Shu tariqa bunyodkorlik ruhidagi g'oya butun xalqimizning qalbidan chuqur joy oldi, umummilliy harakatga aylandi. Chunki uning zamirida ulug' ajdodlarimiz, Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari, armonlari ham mujassam edi.

Mamlakatimizdagi bugungi o'zgarishlar milliy tariximizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechayotganini anglatadi. Shuning uchun “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Rennessans” so'zlarini o'zaro uyg'un aytmoqdamiz.

Bir so'z bilan aytganda, “Yangi O'zbekiston” g'oyasi — yangicha dunyoqarash degan tushunchani anglatadi. Shu ma'noda, **Inson qadri uchun, inson baxti uchun!** tamoyili asosida ezgu sa'y-harakatlar jadal davom etayotgan bir davrda “Yangi O'zbekiston” gazetasi jamoasi ham zimmasidagi vazifalarni fidoyilik bilan bajarib, tariximizning muhtasham solnomasi yo'zishiga o'z hissasini qo'shishiga ishonamiz, albatta.

QO'ZIQORIN BIZNESI:

har tong ikkita issiq non va 100 million so'm foyda



Farg'ona shahri "Yangisoy" mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan Maqsudjon Qosimov 26 yoshga to'ldi. Esini tanib, kuch-quvvatga to'lganidan buyon xorijda ishlaydi. Besh-olti yil avval tomi yopilgan uyining ichiga hamon qo'l urilgan yo'q. Har yili ishlab kelsa, uyni to'liq bitkazib, ko'chib o'tishini aytib safarga o'tlanadi. Ammo topgani o'zidan ortmaydi. Bu holat bir necha yildan beri takrorlanadi. "Holva degan bilan og'iz chuchimas", deganlaridek, faqat orzu-havas bilan maqsadga erishib bo'lmaz ekan...

Yoz kunlarining birida onasi qo'ng'iroq qilib qoldi. Sog'inchi salomdan so'ng mahalladan yo'qlab kelishganini aytib, go'shakni faollarga berdi. Qisqa mulohazalar Maqsudjon dunyoqarashida katta o'zgarish yasadi, hayot tarzida yangi imkoniyatlar ochdi.

Oilasi bag'riga qaytdi. Aytilganidek mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisiga uchrashdi. Unga tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat yuritishi uchun 20 million so'mlik imtiyozli kredit berildi. Maqsudjon asl dehqon farzandi. Yoshligida otasining maslahati, qo'llab-quvvatlovi bilan uy sharoitida qo'ziqorin yetishtirish, sotish bo'yicha tajriba to'plagan. Ammo yetarli mablag', imkoniyat, imtiyoz yo'qligi tufayli jarayon to'xtab qolib, yigit xorijga ish izlab ketgandi. Yetarli sarmoyaga ega bo'lgach, chala qolgan uyining 40 kvadrat metrida qo'ziqorin yetishtirish uchun joy hozirlab, ishga kirishdi.

Qo'ziqorin tez rivojlanishi, xaridorligi bilan ajralib turadi, — deydi Maqsudjon. — Tayyor urug' 21 kunda hosilga kirib, 50 kunda yetiladi. Ayni damda 1000 ta qopda qo'ziqorin parvarishlayapmiz. Bu bir mavsumning o'zida 2 tonnadon ortiq mahsulot degani. Bir kilo qo'ziqorin shu yerning o'zida 20 ming so'mdan sotaymiz. Qo'ziqorin parvarishlash, sotish jarayoni bizning iqlim sharoitida 9 oy davom etishi hisobga olinib, har jihatdan samarali usul ekanini anglab olish qiyin emas. O'z uyimda xorijdan ko'ra ikki-uch hissa ortiq mablag' ishlab topyapman. Eng muhimi, oilam oldida amin-erkin yashayapman. Ro'zg'ordan orttirib, bir necha yildan buyon chala turgan uy ta'minoti ham boshlab yubordim.

U ulkan maqsad va g'oyalari yo'lida harakat qilmoqda. Qo'ziqorin parvarishi ortiqcha xarajat,

ko'p mehnat talab qilmaydi. Uy sharoitida iliq haroratda saqlab turilsa, hosil beraveradi. Maqsudjon shuncha yilni behuda o'tkazgani, mahallada aholi farovonligi yo'lida yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanmay kelganidan afsuslanadi.

Pul topish uchun ne-ne qiyinchiliklari boshdan o'tkazmadim, — deydi yosh tadbirkor. — Og'ir mehnat, begona yurtda kimningdir muruvvatini kutib yashash qiyin bo'larkan. Endi hammasi yangicha ko'rinishda rivojlanmoqda. Onamning sayunganini aytmasizmi! Har tong ikkita issiq non bilan yo'qlab boraman. Duosini olib, ishga kirishaman. Hozir faoliyat ko'laminii kengaytirish yo'nalishida yangi loyihalarni ishga tushirish uchun 100 million so'mlik imtiyozli kredit ajratilishida yordam so'rab, ariza bilan murojaat qildim. Buning hisobidan tomorqamizdagi 4 sotix yerda issiqxonaga qurib, qo'ziqorin yetishtirish va qayta ishlash, qadoqlash tarmog'ini yo'lga qo'yish,



xorijga eksport qilish niyatidaman. Bu oilam va qo'shnilarimga qo'shimcha daromad olish imkonini beradi.

Farg'ona shahrida "Yangisoy" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan shu kunga qadar mehnat migratsiyasida yurgan 10 nafar yosh oilasi bag'riga qaytdi. Ularga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali o'zini o'zi band qilishi uchun 75 million so'mlik imtiyozli kredit ajratildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ijrosi doirasida nafaqat "Yangisoy", balki boshqa mahallalarda ham kambag'allik qisqarib borayotganini kuzatish mumkin. Shu kunga qadar barcha yo'nalishlarda 26 ming 462 ta yangi ish o'rni ochildi. 475 ishga tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqachilik bo'yicha loyihalarni amalga oshirishi uchun subsidiya ajratildi, ishsiz 691 fuqaro kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitildi. Mahallalarning ixtisoslashuv yo'nalishi (drayveri)dan kelib chiqib, qiymati 81,2 milliard so'mlik 1365 ta mikroloyiha shakllantirildi. Ularni ishga tushirish hisobiga 3253 ta yangi ish o'rni vujudga keldi.

Yil yakuniga qadar 609 ta xonadonda istiqomat qiluvchi 1,6 ming kishi kambag'allikdan chiqarildi, — deydi Farg'ona shahri hokimining birinchi o'rinbosari Boburbek Mo'minov. — Hozirda 14 ta oilaga imtiyozli kredit, 91 tasiga subsidiya ajratildi. Ularning 39 a'zosi kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi, 195 nafari doimiy va mavsumiy ishga joylashtirildi. Sayxunobod va Uychi tajribasi asosida 237 ta oilaning bandligi ta'minlandi. Natijada kambag'allik darajasi 0,4 foiz qisqartirildi.

Bu amaliy sa'y-harakatlar joriy yilda ham keng miqyosda davom etishi uchun hozirdanoq aniq dasturlar ishlab chiqildi, tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmoqda. Masalan, 1000 qopga ekilgan qo'ziqorin urug'i o'rta 2 kilo hosil bermoqda. Bir mavsumda 3 marta qo'ziqorin yetishtirish imkonligi hisobga olinib, bir xonadonning sof daromadi o'rta 100 million so'mdan ortadi. Eng muhimi, ishlovchilar bandligi o'z xonadonida ta'minlanadi. Bu orqali ishsiz 200 dan ortiq fuqaro bandligini yil davomida ta'minlash reja qilib olingan. Bugunga kelib, 73 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi 80 dan ortiq xonadonda 8000 qopga yaqin qo'ziqorin yetishtirish ishleri boshlab yuborilgan. 20 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi xonadon egalari tayyor mahsulotni sotish orqali daromad topmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Sherzod Qoraboyev olgan
suratlar.

Kambag'allikdan farovonlik sari



KAVRAKNING KAROMATI KO'P UNDAN KELADIGAN DAROMAD ODAMLARNI HAM, IQTISODIYOTIMIZNI HAM BOYITADI

Cho'llar, adirlar, tog'lar bag'rida ko'p uchratadiganimiz, endilikda madaniylashtirilayotgan kavrak o'simligining 1 kilo shirasi 300 dollargacha sotilishini bilasizmi? Bejiz xonadonda ham kavrak yetishtirayotgan yurtdoshlarimiz safi kengaymayapti.

Ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzida 170 dan ziyod turi bo'lgan kavrakning Markaziy Osiyoda 104, mamlakatimizda 50 ga yaqin turi mavjud. Abu Ali ibn Sino, Beruniy bobolarimiz uni turli kasalliklarni davolashga tavsiya etgan bo'lsa, parhez taomlar tayyorlashda ham foydalanilgan. Turgan-bitgani manfaat bo'lgan kavrakni ko'paytirishga davlatimiz alohida e'tibor qaratayotgani ham shundan. Bugungi kunda bu o'simlik respublikamizdagi 7 ta viloyatning tog'li-

qarab 1,5-2 oy yashaydi. Tabobatda kavrak hayotbaxsh odamg'iyoh (jenshen)dan ustun turgani uchun bahorda hali to'liq yetilmagan ildizidan taomlar tayyorlanadi.

Tuman hokimi o'rinbosari Sherzod Rahimovning aytishicha, har yili kavrak mavsumida 3500 kishining bandligi ta'minlanadi. O'simlikni urug'idan ko'paytirish orqali ko'chatlar yetishtirilayotgani ham aholi daromadi yildan yilga ortishiga xizmat qilyapti. Ayni paytda mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda

tomonidan 15 gektar maydonga ko'histon kavragi ekilgan. Agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida o'tkazilsa, 4 yilda tayyor bo'ladi. Bir dona kavrakdan 100 grammacha shira olinadi, — deydi "Shifo kavrak" fermer xo'jaligi rahbari G'ayrat Rahmonqulov. — Shuning uchun yana 20 gektar maydonni kavrak ekish uchun tayyorlab qo'ydik.

Birgina Jizzaxda emas, bugungi kunda ko'plab hududlarda kavrakning tabiiy zaxiralarni saqlash, qayta tiklanishini ta'minlash, madaniy usulda kavrak plantatsiyalarini yaratish hamda qayta ishlash korxonalarini va uy xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yish ustida tizimli ishlanyapti. Asosiy maqsad esa kavrakdan olinadigan xomashyoni qayta ishlash hamda tayyor va yarimtayyor mahsulot sifatida eksportga chiqarish, sohaga sarmoyalarni keng jalb qilishga qaratilgan.

Yaqin kelajakda Armasoy tumanida ham kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kavrak yetishtirish keng yo'lga qo'yilib, kambag'al oilalar bilan ishlash tizimi yangi bosqichga olib chiqiladi. Maqolani shu hududlik fuqaro, "Shifo kavrak" fermer xo'jaligi ish yurituvchisi Berdimurod Bobomurodovning samimiy jumalari bilan yakunlagimiz keldi: "Bolaligimni yodga olsam, dimog'imga kavrakning achimtir hidi aralash tog' gullari ifori kelayotgandek bo'ladi. Shu dorivor o'simlikdan muntazam iste'mol qilgani uchunmi, tog' odamlari anchayin baquvvat, xastalikka kam chalinaldi. Bu shifobaxsh o'simlik, ayniqsa, bo'g'im kasalliklariga davo ekanini bilan ajralib turadi. Kavrak ekish omallashtirilsa, cho'lliklar kasallik nimaligini bilmay, tog' odamlariday baquvvat va tetik bo'lib, yaxshigina daromad ham topsa ajabmas".



adirli, tog'oldi hududlarida, sof tuproqli yerlarda parvarish qilinaypti. Surxonlarda, ayniqsa, Qashqadaryo viloyati bu borada ancha ilgirilib borayotir.

Mutaxassislarga ko'ra, bir gektar maydonda 30 ming tog' kavrak ko'chatini yetishtirsa bo'ladi. Har bir ko'chatdan o'rta 50 gramm dan hosil olinganida ham (asli, 100 gramm), gektaridan 1500 kilogram xomashyo olish imkoni bor. Kavrak biznesi, minglab fuqarolar bandligini ta'minlashi bilan ahamiyatli. Zero, bir gektar kavrakzorda doimiy bir nafar, mavsumiy 5 kishini ish bilan ta'minlash mumkin. Agar kavrakzorlarimiz maydoni maqsad qilingan ko'rsatkichga (50 ming gektar plantatsiyalar) yetrsa, 250 ming ish o'rni yaratiladi. Shu bois, yurtimizda kavrak yetishtirishga ixtisoslashtirilgan klasterlar soni oshyapti. Birgina Dehqonobod tumanida yetishtirilayotgan kavrak o'simligi orqali yiliga 100 tonna mahsulot olinib, 20 million dollardan ortiq eksport yo'lga qo'yilmoqda. Tumanidagi 12 ta mahallaning kavrakchilikka ixtisoslashtirilgani ayni o'simlikni hudud drayveriga aylantirdi.

Xonadonimizda kavrak yetishtiramiz — deydi Yangi O'zbekiston mahallasida yashovchi Yusuf Jo'rayev. — Kavrak — ko'p yillik o'simlik. Bo'yi 1,5-2 metr gacha, ildizi yo'g'on, 15-20 santimetr gacha yetadi. Mart-aprel oylarida gullab, mayda yetilib pishadi. O'sish muhiti va ob-havo sharoitiga

xotin-qizlar faollari tomonidan ijtimoiy holati og'ir oilalar aniqlanib, ularning kavrak yetishtirishi choralari ko'rilmog'chi.

Kavrak biznesi uchun Jizzax viloyati ham eng qulay hududlardan biri. Shu bois, bu sardaromad manba amasoyliklarda allaqachon qiziqish uyg'otgan. Tuman hokimi boshchiligidagi "mahalla yetitiligi" Dehqonobod bo'lib, kavrak maydonlari, uni qayta ishlash borasidagi ishlar bilan tanishdi. Kavrak yetishtirish texnologiyasini o'rgandi.

Aslida, 2019-yilda Jizzaxning Armasoy tumanidagi "Shifo kavrak" fermer xo'jaligi

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



KANALLARNI BETONLASH

30-40 foiz suv sarfining oldini oladi

O'zbekistondagi suv resurslarining 20 foizi o'zimizda, katta qismi qo'shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o'zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Mutaxassislar tomonidan transchegaraviy daryolarni boshqarish bo'yicha vaziyat va boshqa omillar ta'sirida 2030-yilga borib O'zbekistonda suv tanqisligi 15 milliard kub metr gacha yetishi prognoz qilingan.

2024-yil 7-noyabr kuni suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, qishloq xo'jaligida yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari suv tanqisligi muammosining yagona to'g'ri yechimi suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ariqlarni betonlash ekanini ta'kidladi. Bu boradagi chora-tadbirlar 2023-yil noyabrda belgilangan bo'lib, 2024-yil suv xo'jaligida "Kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" e'lon qilingan edi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, betonlangan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga o'rta 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo'lyapti. Eng ko'p suv yo'qotishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Navoiy, Xorazm va Buxoro viloyatlariga to'g'ri keladi. Kanallarning oxirida joylashgan ekin maydonlarida suv ta'minoti og'irlikga qolmoqda.

Navoiy viloyatida ham bu borada aniq va manzilli chora-tadbirlar belgilangan. Viloyatdagi Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tashabbusi bilan suvdan oqilona foydalanish xamda suv

resurslarini tejash, shuningdek, ichki ariq va kanallarni betonlashtirish ishleri keng ko'lamda bajarilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, kanallarni betonlashtirishda noyabrdan martgacha bo'lgan vaqt eng qulay palla. Navoiy viloyatida 2024-yilning kuz mavsumida "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi hisobidagi 240 kilometr uzunlikdagi sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda ishning 70 foizi bajarildi.

— 2025-yil 1-aprelgacha viloyatdagi klaster va fermerlar hisobidagi 1000 kilometr ariq va kanalni betonlashtirishni rejalashtirganmiz. "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi hisobidagi 240 kilometr uzunlikdagi sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish evaziga viloyatimizda 50 million kub metr suvni tejab, suv yetib borishi murakkab bo'lgan 500 gektar yerni suv bilan ta'minlashga erishiladi. Ayni vaqtda bu boradagi ishlar viloyatimizning barcha hududlarida jadal davom etmoqda, — deydi Navoiy viloyati Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Adham Faytoyev.

Irrigatsiya



Ayni mavsumda Navbahor tumanida ham kanal va ichki ariqlarni betonlashtirish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda. Tumanda 126 kilometr ariq va kanal bo'lib, shundan 53 kilometrini 2025-yilning 1-aprelgacha

betonlashtirish ko'zda tutilgan. Hozir 20 kilometr ariq-zovurdagi ishlar yakunlangan. Albatta, bu jarayonda ko'zlangan maqsadga erishilib, samarasi yaqqol sezilmog'chi. Xususan, 5-6 soatda suv yetib boradigan maydonlarda

betonlashtirishdan keyin muddat 1,5-2 soatgacha qisqargan.

Shuningdek, viloyatda 2024-2025-yil hosili uchun rejalashtirilgan 18 ming gektar maydonda sho'r yuvish ishleri bajarilib, bugungacha 1157 gektar yerda ishlar yakunlandi. Navbahor tumanida esa 6000 gektar yerda sho'r yuvish tadbirlari amalga oshiriladi. Bu jarayonda tejakor texnologiyalarni joriy etish ham suv sarfi va xarajatni qisqartirishda muhim omillardan. Viloyatda ariq va zovurlarni betonlashtirish bilan birga bu jihatga ham alohida e'tibor qaratilmog'chi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda oxirgi yillarda 1 milliard dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalari modernizatsiyasi qilingani, lekin o'rta va mayda nasoslar eskiligi sababli suv tanqisligi oshib ketayotganini ta'kidlagan edi. Navoiy viloyatida bu borada ham chora-tadbirlar belgilanib, amaliy ishlar davom etmoqda.

Viloyatda aholi va fermer xo'jaligi yerlarini suv bilan barqaror ta'minlash Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasarrufidagi nasos stansiyalari zimmasiga

yuklangan. Yirik quvvatli nasoslar yordamida Zarafshon daryosi suvi bir necha metr yuqori ko'tarilib, yetkazib beriladi. Tabiiyki, bu jarayon katta miqdorda elektr energiyasi va ishchi kuchini talab etadi. Nasos stansiyalaridagi nasos agregatlari hamda boshqa uskunalarni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy energiyatejkor texnologiyalar bilan jihozlash suv va elektr energiya sarfini kamaytirishning eng maqbul yechimlari. Shu maqsadga hozir viloyatdagi nasos stansiyalarida bu borada amaliy ishlar izchil bajarilmoqda.

Bugun viloyatda 32 ta nasos stansiyasi bo'lib, ularda 170 ta nasos agregati hududlarga suv yetkazib bermoqda. Joriy mavsumdagi kuzgi-qishki ta'mirlash jarayonida 54 ta nasos agregatini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, viloyatdagi 133 ta yer osti tik quduq'ida ham suv sarfini kamaytirish va elektr energiyasini tejash maqsadida amaliy ishlar bajarilmoqda. Ushbu yo'nalishda boshqarmamiz mutaxassislari tomonidan 79 ta loyiha ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etib kelinmoqda, — deydi Navoiy viloyati Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ishlab chiqarish texnik sektori boshlig'i Alisher Murtazoyev.

Yig'ilishda betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashib, kichik GESlar qurish uchun keng imkoniyat yaratilayotgani ta'kidlangan edi. Navoiy viloyatida 11 megavattli 148 ta shunday stansiya qurish boshlangan. Umuman, hududlarda 2 mingta mikro GES qurilib, yiliga qo'shimcha 600 million kilovatt-soat elektr energiyasi olish rejalashtirilgan.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Uchinchi Renessans poydevori

Ilm-fan rivojiga e'tibor har qanday davlat va millatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim omildir. Ikki Renessansga beshik bo'lgan yurtimizdan jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir va allomalar yetishib chiqqan. Endi esa mamlakatimizda Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilmoqda. Ta'lim, ilm-fanga e'tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xususan, oliy ta'lim tizimi to'liq isloh qilindi, yangi oliy ta'lim dargohlari, shu jumladan, jahondagi nufuzli universitetlarning filiallari ochildi, kirish imtihonlari jarayonlariga o'zgartirish kiritildi. Korrupsiya va poraxo'rlik keskin kamaydi, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ekspertlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar hamda tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.



KELAJAK ILMILARI

QANDAY EGALLANADI?

4+2 dasturi asosida eng iqtidorli talabalarimizni maktablarga amaliyotga jalb etganimiz. Birgina 30-umumta'lim maktabida bugungi kunda 100 ga yaqin iqtidorli talaba amaliyot o'tash bilan birga o'quvchilarning ilm-fan sirlarini yanada mukammal egallashiga ko'makchi bo'lmoqda. Bundan tashqari, ushbu dastur asosida 8000 talabani viloyatimizdagi maktablarga birlitirganimiz. Ya'ni ular haftada to'rt kun ta'lim olib, ikki kun maktablarda amaliyot o'tamoqda.



Shavkat SHARIPOV, pedagogika fanlari doktori, professor

Xalqaro e'tiroflar oliyog'ho imijini belgilaydi

2017-yilgacha Jizzax viloyatida atigi ikkita oliy ta'lim muassasasi bo'lgan bo'lsa, bugun ularning soni beshtaga yetdi. Viloyatimizda tashkil etilgan ilk oliyog'ho Jizzax davlat pedagogika instituti hisoblanadi. 1974-yili Jizzax viloyati tashkil etilgach, shu yili Jizzax davlat pedagogika instituti viloyatdagi birinchi oliyog'ho sifatida o'z faoliyatini boshlagan. 2021-yil Prezidentimiz viloyatimiz saylovchilari bilan uchrashuvda Jizzax davlat pedagogika institutiga universitet maqomini berishni taklif etdi. Ushbu taklif viloyatimiz aholisi tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi va 2022-yili institutga universitet maqomi berildi.

Universitetning asosiy vazifasi zamonaviy bilim va malakaga ega yetuk pedagog mutaxassislarini tarbiyalashdan iborat. Dastlab o'zbek tili va adabiyoti hamda matematika fakultetidagi 425 talaba, 29 ustoz bilan o'z faoliyatini boshlagan oliyog'ho bugun 33 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda 20 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlayotgan 12 ta fakultet bor. Ularda 19 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda, 800 dan ziyod professor-o'qituvchi ta'lim-tarbiya bermoqda.

2024-yili Jizzax davlat pedagogika universitetida 38 ta PhD, 4 ta DSc dissertatsiyasi himoya qilindi. Ayni paytda doktoranturada 71 tadqiqotchi tahsil olmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari uchun xalqaro reytinglarga kirish ularning nufuzi, jozibadorligi, ta'lim sifati hamda xorijiy talaba

va professor-o'qituvchilar soni oshishiga, oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga xalqaro standartlar tezkorlik bilan joriy etilishiga turtki beradigan muhim omil bo'lib, oliyog'ho imijini ko'tarishga xizmat qiladi. Shu bois, universitetimiz xalqaro reytinglarda munosib o'rinlarni egallash borasida keng ko'lami sa'y-harakatlamga amalga oshirib kelmoqda.

Natijada xalqaro reytinglarda o'rnimiz mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, ta'lim tizimidagi ilmiy ishlardagi iqtiboslarni belgilaydigan xalqaro Gogol School reytingida respublikamiz oliy o'quv yurtlari orasida universitetimiz eng yuqori o'rinlarda qayd etiladi. Shuningdek, to'qqizta xalqaro reytingga a'zo bo'lganimiz.

Oliyog'ho AQSHning Jorjiya universiteti, Buyuk Britaniyaning Norvich tillar instituti va Porsmut universiteti, Fransiyaning INSEA maxsus ta'lim ehtiyojlariga ixtisoslashgan milliy davlat ta'lim va tadqiqot muassasasi, Rossiyaning Sankt-Peterburg davlat universiteti, Qozon federal universiteti kabi dunyodagi yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan 60 tasi bilan aloqalarni yo'lga qo'ygan. Ularning tajribalarini o'rganib, hayotga tatbiq etish maqsad qilinagan.

O'tgan yili o'quv jarayonlariga 40 nafar xorijiy professor-o'qituvchi jalb etildi. Shulardan 22 nafari xalqaro oliy ta'lim muassasalari reytingida nufuzli 1000 talik ro'yxatga kirgan OTM professor-o'qituvchilardir. 2024-yilda universitetda Qirol Sejong koreys tili markazi ochildi. Shuningdek, universitet va AQSH elchixonasi o'rtasidagi hamkorlik doirasida kasbiy rivojlanish to'garagi tashkil etildi.

Universitetda iqtidorli yoshlar bilan ishlash, ustoz-shogird an'analari yaxshi yo'lga



qo'yilgan. Natijada talabalarimiz orasida nomdor davlat stipendiyalari sohiblari safi yildan yilga oshmoqda.

Yoshlarga ko'maklashuvchi platforma ishga tushdi

2023-2024-o'quv yilida talabalarimiz o'quv faoliyatini rivojlantirish bilan birga shaxsiy va professional jihatdan yetuk kadrlarga aylanishi uchun zarur sifatlarni shakllantirish hamda psixologik holatini doimiy ravishda nazorat qilish maqsadida psixologiya.jpdu.uz onlayn platformasi tashkil etilgan edi. Ushbu platformada har bir talaba psixologik testlar

va so'rovnomalarda qatnashish va natijalarini kuzatib borish imkoniyatiga ega.

Platformada shaxsning psixologik holati, jumladan, xarakter xususiyatlari, mulqotchanlik, yetakchilik salohiyati, bezovtalik darajasini aniqlash, ichki motivatsiyani o'rganish, depressiya va stress holatlarini baholash kabi ko'plab psixologik testlar va so'rovnomalarda mavjud. U talabalarining psixologik holatini erta bosqichda aniqlash va ularga zarur yordam ko'rsatish imkonini yaratadi, shu bilan birga, psixologik xizmatlarning samarali va tizimli ravishda taqdim etilishiga katta hissa qo'shadi.

Biz, asosan, o'qituvchilar tayyorlaymiz. Ular boshqalarda kitob o'qishga mehr uyg'otishi uchun, avvalo, o'zlarida shu mehr shakllangan bo'lishi kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, universitet kitob fondini ham ta'lim yo'nalishlari bo'yicha, ham badiiy adabiyotlar yo'nalishida boyitish harakatlarini boshladik. Bu borada mamlakatimizning yetakchi nashriyotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydik. Axborot-resurs markazimiz 30 ming adabiyot va 40 mingdan ziyod kitobning elektron versiyalari bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, muloqat, kompyuter xonalari, mediastudiyalar, ma'lumot almashish imkonini beruvchi tizim, tezkor Wi-Fi tarmog'i mavjud.

4+2 dasturi: oliy ta'lim va maktab hamkorligi samara bermoqda

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitish sifati oshirish orqali jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishga poydevor yaratiladi. Ana shunday

asosni barpo etish uchun uning me'morlari — bo'lajak o'qituvchilar o'z fanini mukammal bilishi, yuksak pedagogik mahoratga, yangi metodikalarni ishlab chiqish va undan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ayni paytda maktab va oliy ta'lim muassasasi hamkorligi o'z samarasini bermoqda.

Jizzax shahridagi 30-umumta'lim maktabi universitetimizga tayanch maktab qilib berilgan. Oliyog'ho ushbu maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish, sifati oshirish, o'quvchi yoshlarning o'z iste'dodini to'liq namoyon etishiga har tomonlama ko'maklashmoqda.

Maktabda asosiy e'tibor bitiruvchilarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga ko'maklashish va kasbga o'rgatish, quyi sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarni qiziqishlariga ko'ra kasb-hunar, san'at turlariga yo'naltirish, iste'dodlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Dastlab maktabda o'quvchilarning kasbga moyilligini aniqlash maqsadida turli testlar o'tkazildi. Ijtimoiy soha, aniq va tabiiy fanlar, san'at, jismoniy sohalar bo'yicha o'tkazilgan testlar natijalari asosida maktabda turli kasblarga yo'naltirilgan to'garaklar faoliyat boshladi. Ayni paytda 100 dan ziyod o'quvchi pazandalik, santexnika va tikuvchilik to'garaklariga qamrab olingan. 100 ga yaqini esa xorijiy tillar (ingliz, nemis va fransuz tillari) to'garaklariga qatnashmoqda.

Maktab o'quvchilarning ota-onalari bu ishlarimizga xayrixohlik bildirib, tadbirlarimizda bevosita qatnashib, maktablar faoliyatini rivojlantirish, muammolarni birgalikda hal etishga tayyorligini bildirmoqda. Shu bilan birga, universitetga Jizzax shahridagi 13 ta umumta'lim maktabi birlitirilgan. Bu maktablar har bir fakultetga bo'lib berilgan.

4+2 dasturi asosida eng iqtidorli talabalarimizni maktablarga amaliyotga jalb etganimiz. Birgina 30-umumta'lim maktabida bugungi kunda 100 ga yaqin iqtidorli talaba amaliyot o'tash bilan birga o'quvchilarning ilm-fan sirlarini yanada mukammal egallashiga ko'makchi bo'lmoqda. Bundan tashqari, ushbu dastur asosida 8000 talabani viloyatimizdagi maktablarga birlitirganimiz. Ya'ni ular haftada to'rt kun ta'lim olib, ikki kun maktablarda amaliyot o'tamoqda.

Keng miqyosda raqamlashtirish jarayoni kechmoqda. Ammo asosiy masala ongni o'zgartirishga qaratilishi kerak. Shu sababli talabalarimizga korrupsiyaning salbiy

Hozircha barcha talabalarni yotoqxona bilan ta'minlay olmadik

Mamlakatimizdagi deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida bo'lgani kabi universitetimizda ham talabalar uchun yotoqxona muammosi mavjud. Yuqorida aytilganidek, oliyog'ho 19 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Ammo o'quv binolari umumiy quvvati 8128 o'rinni tashkil qiladi. Oldimizda yangi o'quv binolari hamda talabalar turar joylarini qurishdek muhim vazifalar turibdi.

Bu borada dastlabki qadamlarni qo'ydik. Joriy o'quv yilidan 600 o'ranga mo'ljallangan yangi talabalar turar joyi foydalanishga topshirildi. U 7 qavatdan iborat. Zamonaviy loyiha asosida qat rostlagan yotoqxona talabalarining ovqatlanishi uchun zamonaviy oshxona, darsliklar, badiiy va ilmiy, ma'rifiy adabiyotlar bilan boyitilgan ma'naviyat xonasi, "Zakovat" xonasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilim va malakalarini oshirishi uchun eng zamonaviy turdagi kompyuterlar bilan jihozlangan xona, kir yuvish va yuvinish xonalari mavjud.

"Yashil makon": olimlar "Professorlar bog'i"ga ko'chat ekdi

O'tgan yili universitetimiz tashkil etilganing 50-yilligini keng nishonladik. "Ta'limni rivojlantirish strategiyasi: qadriyatga asoslangan taraqqiyot" mavzusida o'tkazilgan tadbirimizga xalqaro oliy ta'lim muassasalari reytingida TOP-500 talik ro'yxatga kirgan oliyog'ho 24 nafar nufuzli olim tashrif buyurdi. Shuningdek, ushbu sana munosabati bilan "Universitet sari odimlar" sarlavhasi ostida kitob jamlanmasi nashr etildi. Keng ko'lami ta'mirlash, buniyodkorlik ishlari bajarildi. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy harakati bilan uyg'unlikda muassasamizda "Professorlar bog'i" tashkil etildi. Ushbu maydonda 50-yil davomida universitetimizda mehnat qilib, uning rivojiga, taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olimlar, professorlar tomonidan ko'chatlar ekildi.

2024-yil bahor faslida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida universitetning sirtqi bo'limi joylashgan Bo'ston shaharchasi hududidan bog' tashkil qilish uchun qo'shimcha 4,5 gektar yer ajratilib, 7000 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Bu xayriy ishlar o'tgan yilning kuz mavsumida ham davom etdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi bir oylik yoki bir yillik tadbir emas. Ezgu maqsadlarga yo'g'rilgan aksiya doirasida kelgusi yillarda ham faol qatnashib, yurtimizni ko'klamzorlashtirishga o'z hissamizni qo'shmoqchimiz.

Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy avlodlarga kelgusi zamon ilmlarini o'rgatishni tavsiya qiladi, chunki ular biz yashagan davrda emas, o'zga zamonda yashaydi. Allomaning mazkur hikmati bugun har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo bizdan zamon bilan hamnafas bo'lishni, farzandlarimizning kelajak kasblarini o'rganishi uchun sharoit yaratishni taqozo etmoqda.

Buni to'g'ri anglagan universitetimiz jamoasi o'z oldiga faqat o'qituvchi emas, balki bir necha xorijiy til, zamonaviy bilim va kasb-hunar egasi bo'lgan tajribali mutaxassislarini tayyorlash orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Ta'lim taraqqiyoti

Prezidentimizning 2022-yil 9-iyundagi qarori asosida Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti tashkil etilgan edi. Ayni paytda institut mamlakatimiz ta'lim tizimida o'zining o'rni va salohiyatini tobora mustahkamlab kelmoqda. 93 professor-o'qituvchi 18 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 10 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha 2500 dan ziyod talabaga kasb sirlarini o'rgatmoqda. Qisqa muddatda institut ilmiy salohiyati 34 foizdan oshdi. Bu oliyog'ho o'qitish sifati muttasil oshirishga intilishi bilan izohlanadi. Shu maqsadda o'quv jarayoni zamonaviy pedagogik metodlar asosida tashkil etilmoqda. Chet tillarni o'qitishda eng ilg'or o'quv-uslubiy resurslar va texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar uchun til bilish bilan birga erkin mulqot qilish va global muhitda faoliyat yuritish imkoniyati yaratilgan.

MAQSAD FAQAT TIL O'RGATISH EMAS

Kelajakda institut chet tillarni o'qitishda yana qator yangi yo'nalishlarni joriy etishni maqsad qilmoqda. Bu, o'z navbatida, talabalarga nafaqat til bilish darajasini oshirish, balki o'zini global miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida ko'rsatishga yo'l ochadi. Yangi kurslar va dasturlar yigit-qizlarga dunyoning eng ilg'or ta'lim tizimi bilan hamohang bilim olish imkoniyatini taqdim etadi.

hamkorlik o'rnatildi. Ispan, italyan tillarini ikkinchi til sifatida o'qitish uchun malakali mutaxassislar jalb qilinib, hozir ushbu tillar onlayn platforma orqali o'qitilmoqda. Yaqin orada Buyuk Britaniya, Yaponiya, Ispaniya, Xitoy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha ham kelishuvga erishildi. O'qitish sifati oshirish uchun xorijiy 21 mutaxassis ta'lim jarayoniga jalb etildi.

O'tgan yilda talabalarimiz bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma'naviy-ma'rifiy sohada samarali faoliyat yuritish bo'yicha 1800 dan ortiq tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda viloyatdagi 10 ta oliy ta'lim muassasasi talabalari ishtirok etdi. "Innovatsion yondashuv"



Rivojiddin KARIMOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

yo'nalishidagi videokontentlar tanlovida barcha o'rinlarni oliyog'ho talabalari egalladi. Institut rektori tashabbusi asosida yuqori darajadagi IELTS va CEFR sertifikatiga ega talabalar taqdirlandi. "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalarining hududiy bosqichida OTMning qizlar jamoasi voleybol va stritbol

o'rgatishda professional mutaxassislar tomonidan o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar, sinxron tarjima, lingafon xonalari va zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida yanada samarali ta'lim olish uchun sharoit muhayyo etildi.

Bundan tashqari, talabalar uchun yangi multimedia resurslari, interaktiv darsliklar va onlayn materiallar ishlab chiqilib, ularning mustaqil ta'lim olish imkoniyati kengaytirib borildi. Institut chet tillarni o'qitishda faqat nazariy bilim berish bilan cheklanish emas, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalar bilimni amaliyotda sinovdan o'tkazishi, sinxron tarjima va boshqa interaktiv metodlar orqali tilni o'rganish jarayoni yanada samarali bo'lishi uchun turli tadbirlar, xalqaro konferensiyalar va forumlar tashkil qilinadi.

Kelajakda institut chet tillarni o'qitishda yana qator yangi yo'nalishlarni joriy etishni maqsad qilmoqda. Bu, o'z navbatida, talabalarga nafaqat til bilish darajasini oshirish, balki o'zini global miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida ko'rsatishga yo'l ochadi. Yangi kurslar va dasturlar yigit-qizlarga dunyoning eng ilg'or ta'lim tizimi bilan hamohang bilim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Namangan davlat chet tillar instituti jamoasi chet tillarni o'qitishda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan birga talabalarni global bilim va madaniyat dunyosiga olib chiqish uchun izchil faoliyat yuritmoqda. Ta'lim sohasidagi yangiliklarga mutanosib tarzda institut ta'lim tizimini raqamlashtirish, modernizatsiya qilish va xalqaro andozalar bilan uyg'unlashtirishni davom ettirib, mamlakatimiz o'qitish tizimining raqobatbardoshligini ta'minlashga intiladi.

Buyuk o‘zbek yo‘li

Vaqt — buyuk hakam. Daryo ham, inson ham aloqibat o‘ziga, asl o‘zaniga, qaytadi. Bir obod bo‘lgan joy yana obod bo‘ladi. Hech bir haqiqat ochilmay qolmaydi. Oradan necha ming yil o‘tmasin, inson tomirida oqayotgan qon rangi va genetikasi o‘zgaraydi. Bu e’tirof olis o‘tmishda dunyo tamaddunini tafakkur nuri ila bezagan, ikki daryo oraliq‘ida yuksalgan, tafakkuri olis yulduzlargacha yetib borgan, ma’naviyati olamni mahliyo etgan qutlug‘ makon — ona vatanimizga bevosita taalluqli. Bugun dunyoviy o‘zgarishlar shiddati shunday tezlashdiki, Yer yuzida hayot chirog‘ini saqlab qolishga bog‘liq harakatlar bilan birga, taassufki, tinch-totuv yashash umidiga zid, insoniylik manfaatlaridan uzoq qaror-u yechimlar ham tarix solnomasiga kirmoqda. Sotuvchi bozorga olib chiqqan molini yomon demaganidek, nifoqlashayotgan har bir tomon faqat o‘z qarashini, o‘zi tanlagan yo‘lni to‘g‘ri deb biladi.



Ahmadjon MELIBOYEV, yozuvchi

Makedonskiy va shunga o‘xshash katta-yu kichik fothlar esa tarixda qoladi. Nima uchun shunday? Nima uchun biz o‘sha qurbonlarning har bittasi haqida qayg‘urmaymiz? Ular ichida vatan, millat taqdirini hal qilishga qodir buyuk iste’dodlar, ulug‘ sarkardalar ham bo‘lishi ehtimoli to‘g‘risida o‘ylab ko‘rmaymiz. Buning mutlaqo iloji yo‘q. Urushning eng katta dahshati shunda”.

Rasmiy statistikaga ko‘ra, bugun mamlakatlarning bir yillik jami harbiy xarajati 2,44 trillion dollarga yetgan. Bir yilda shuncha! Ikki yilda salkam 5 trillion! Bu mablag‘ning kuchi va ko‘lamini tasavvur qilish qiyin. Mutaxassislar uning atigi beshdan biri bilan dunyo miqyosida mavjud jamiki kasalliklarni, xatari viruslarni yo‘q qilish, savodsizlikni tugatish, oziq-ovqat taqchilligiga barham berish, toza ichimlik suv muammosini hal qilish, ekologiyani yaxshilash, hayvonot dun-



Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiyning komil inson, hamjihatlik, o‘zaro hurmat-ehtirom, bag‘rikenglik haqida bundan besh yarim asr avval aytgan mo‘tabar so‘zlari dunyo ahlining shu maqsadga erishish yo‘lini bugun ham yoritib turgan bo‘lsa, Chingiz Aytmatovning insoniyatga qarata “Yer talashmanglar, suv talashmanglar, tog‘larni qulatmanglar, tabiatni asranglar, insonni inson maqomida saqlab qolinglar”, degan vasiyati ham asrlar osha ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

sog‘inmaydigan, bir-birimizsiz ham ish bitiradigan bo‘lib qoldik. Tajribasiz poygachilarga o‘xshab turfa tomonlarga ot surdik. Ko‘p yillar bu ayriliq azobini his etib tursak ham bir-birimizga yovqarash qildik faqat bir tomonni haq, deb bildik.

Ne baxtiki, bu noxush holat Prezidentimiz tashabbusi, siyosiy irodasi va qat‘iyati, yondosh besh davlat rahbarlarining qo‘llari, amaliy harakati bilan nihoyasiga yetdi. Bugun endi bu g‘ayritabiiy cheklovlar ildizini kovlab vaqt o‘tkazishdan foyda yo‘q — qars ikki qo‘ldan chiqadi, deydi. Shu gapning o‘zi yetari.

Dunyoni go‘zallik qutqaradi, degan hikmat bor. Shunday, ammo bu jarayonda go‘zallik bilan birga ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq, imon-e’tiqod ham faol ishtirok etadi. Taassufki, cheklovli yillarda adabiy-madaniy aloqalar, ijodiy hamkorlik ham sustlashdi. Bu boradagi yaxshi an‘analardan unutilayotdi. Bugun bu yo‘qotishlarning o‘rmi to‘ldirilmoqda. Tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman hamkasblarimiz keyingi paytlarda bir emas, bir necha marta yurtimizga kelib ketdi. O‘zbekistonlik ijodkorlar Xo‘jand, Bishkek, O‘sh, Olmota, Ostona, Ashxobodda bo‘ldi. Shoir va yozuvchilar bir-birini dadil tarjima qilmoqda.

Madaniyat va san‘at ahli bir-biriga intiq ekan, mana endi ochiqlik, oshkorlik zamonida ularning har bir uchrashuvi qardoshlik, taqdirshoklik bayramiga aylanayotir. Besh davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-ma’naviy birlik bugungi murakkab davrning noyob ibratlaridan biri sifatida dunyoning boshqa mintaqalariga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Prezidentimiz asrlar davomida bir-biriga yelkadosh bo‘lib kelgan ellar o‘rtasidagi ishonchni tiklash, yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi, bu ishini o‘zining el-yurt oldidagi muqaddas burchi deb bildi. BMT minbarida, yirik xalqaro anjumanlarda, rasmiy davlat safarlarida olg‘a surayotgan tashabbuslarida yaxshi qo‘shnichilik, manfaatli hamkorlik hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydigan qudratli kuch ekanini qayta-qayta ta’kidladi. Bu kuch bir-biriga tutash davlatlar o‘rtasidagina emas, jahonning ikki milliard aholisi yashaydigan Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari bilan ham manfaatli aloqalariga ham o‘ziga qo‘yish, tinchlik-totuvlikka, ochiqlik va tushunuvchanlikka erishish, asrlar davomida insoniyat yo‘lini beminorat yoritib kelgan ma’naviy birlik ildizlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birgina Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilsa, Yaqin Sharq bozorlariga xavfsiz savdo-sotiq yo‘li ochiladi. Janubiy Osiyo mamlakatlari O‘zbekiston uchun yirik iqtisodiy bozorga aylanadi. Bunday faqat biz emas, yon qo‘shnilarimiz ham manfaat ko‘radi. Ikki mintaqqa o‘rtasida tizimli transport qatnovi yo‘lga qo‘yilishdan Yevropa davlatlari ham manfaatdor bo‘ladi.

Albatta, bu maqsadga shunchaki xohish-istak bilan erishib bo‘lmaydi. Har bir davlatning o‘ziga xos ichki va tashqi siyosati, tuzumi, qonun-qoidalar, urf-odat va an‘analari bor. Prezidentimiz shu jihatlarni hisobga olib, dunyo davlatchiligi tajribasi va mintaqadagi real vaziyatdan kelib chiqqan holda Afg‘oniston masalasida tashabbuskor bo‘lishni, bu yo‘nalishdagi yetakchilikni amaliy harakatlar bilan mustahkamlashni zimmasiga oldi.

Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiyning komil inson, hamjihatlik, o‘zaro hurmat-ehtriom, bag‘rikenglik haqida bundan besh yarim asr avval aytgan mo‘tabar so‘zlari dunyo ahlining shu maqsadga erishish yo‘lini bugun ham yoritib turgan bo‘lsa, Chingiz Aytmatovning insoniyatga qarata “Yer talashmanglar, suv talashmanglar, tog‘larni qulatmanglar, tabiatni asranglar, insonni inson maqomida saqlab qolinglar”, degan vasiyati ham asrlar osha ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

OQQAN DARYO OQMAY QOLMAS



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Davlatimiz rahbari yuritayotgan ichki va tashqi siyosatda, milliy yuksalishning aniq yo‘llari belgilab berilgan harakatlar strategiyasida inson omiliga e’tibor birlamchi vazifa sifatida yuzaga chiqdi, ya’ni har bir kishi o‘z hayotidan bugun o‘zida, shu umrida rozi bo‘lib yashashi, tinch, osuda turmush kechirishi, farzandlari kamolini ko‘rish, dunyoga chiqishi va uni idrok etishi kerak. Jamiyat hayotiga doir qonun-qoidalar kashf etilganidan beri odamlar qonun talablari barcha uchun barobar bo‘lishini xohlaydi. Chunki faqat shu barobarlik necha ming yillik orzu bo‘lmish ijtimoiy adolat prinsipiga poydevor bo‘la oladi. Bunday poydevor jamiyatning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan birga kelajagini ham belgilaydi.

Bir qarashda murakkab vazifa emas — bir zaminda, bitta osmon ostida yashaymiz. Bir-birimizdan uzoqda ham emasmiz. Demak, bir-birimizni tushunib, qo‘l berib, ko‘ngil qo‘yib, yakdil yashashimiz uchun asos mavjud. Bugun dunyoda yuzaga kelgan iqtisodiy, ma’naviy, ekologik va boshqa muammolar faqat bir millat yoki bir mamlakatga emas, butun insoniyatga, yer yuziga barobar taalluqli. Antarktidadagi necha million yillik muz erishi oqibati faqat shu qit‘aga emas, quyosh haroratidan hansirab yotgan Afrikayu Osiyoga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu mamlakatlardagi kasallik, oziq-ovqat taqchilligi, ishsizlik, qurolli mojarolar, bosqinchilik harakatlari keyingi sakkon yilda xotirjam, to‘kin-sochin yashab kelayotgan Yevropaning tinchligini buzayotgani — buguni ijtimoiy reallik. Yaratganning moddiy va ma’naviy marhamati — yer osti va usti boyliklari, yer, suv, havo faqat bir mamlakat, bir millatning emas, borliq inson zotining, jumladan, kelajak avlodlarning ham rizq-nasibasi.

Aziziddin Nasafiy komil inson haqidagi kitobida: “Dunyo hech qachon bir holatda uzoq vaqt turib qolmaydi — goh dengiz to‘lqini yanglig‘ balandlikka ko‘tariladi, goh pasayadi, holatdan ikkinchi holatga o‘tadi”, deb yozadi. Biz bugun ayni shu holatga guvoh bo‘lib turibmiz. Dunyo chindan ham bezovta to‘lqin kabi quturib, kutilmaganda hamla qilmoqda. Jafokash yer silkinishdan to‘xtayotgani yo‘q. Yon‘inlar avj olayotir. Suriya — notinch, dunyoning go‘zal malikasi bo‘lmish Damashq — vayrona, falastinlik jabrdiydalarning faryodi ko‘kka o‘rlaydi. Axborot agentliklarining

xabariga ko‘ra, dunyodagi mojarolar sabab har kuni necha yuzlab askar — kimningdir o‘g‘li, kimningdir otasi, turmush o‘rtog‘i halok bo‘layotir. Tinch aholi orasidagi qurbonlar, uy-joyisiz qolib, qochoqqa aylanayotganlar, dom-daraksiz bolalar sanoqqa olinayotgani yo‘q. Taassuflisi shundaki, ayrim siyosatdonlar ikkinchi tomon ko‘proq qurbon berayotganini harbiy yutuq sifatida ko‘z-ko‘z qilmoqda. Har



kuni necha yuzlab, mojaro boshlanganidan beri necha yuz ming oila boquvchisiz qolayotganini kim aytadi?

Inson qachon birinchi marta qo‘liga qolmay (tayoq) olgan, shunday qilishga uni nima, qanday holat majbur etgan? Bu savolga javob berish qiyin emas. Tirik jon borki, o‘zini biror xavf-xatardan himoya qilish instinkti bilan yashaydi. Tashqaridan xavf borki, shunday qiladi. Himoya vositalari tayyorlaydi, ularidan foydalanishni, kimnidir, nimanidir bexato nishonga olishni o‘rganadi, bolalariga ham o‘rgatadi. Ammo o‘sha tashqi xavfni kim yuzaga keltiradi, kim birinchi bo‘lib hujum qiladi, kim himoyalinishga majbur, kimning uyi yonadi, kimning bolalari halok bo‘ladi — insonning! Boshqa hech kimning emas. Shunday ekan, necha ming yilliklar davomida idroklihar ongiga naqshlangan ikki haqiqatdan nega yuz o‘g‘irish kerak?

Birinchi, qurol-yarog‘ hech qachon tinchlikka xizmat qilmaydi, o‘q, snaryad, bomba yoki raketaning vazifasi yaratish, bunyod etish emas, o‘ldirish, yondirish, vayron qilish.

Ikkinchi, har qanday urush kimningdir g‘olibligi bilan tugamaydi, urushda ikki tomon mag‘lub bo‘ladi.

Chingiz Aytmatovning “Momo yer” qissasi



qahramoni, urush tufayli to‘rt o‘g‘lidan judo bo‘lgan To‘lg‘anoyning Yerga savolini eslaysizmi? Odamlar (bir qavm, bir-biriga ildizi yaqin insonlar) nega urush qiladi, biri ikkinchisining uyini buzadi, bolalarini o‘ldiradi? Axir suv, yer, havo, tabiiy boyliklar hammaga yetib ortadi-ku, odamzod bularni nega talashadi?

“Tarixning notantligi shundaki, — degan edi Chingiz o‘g‘a subhatlaridan berida, — insoniyat tarixida bo‘lib o‘tgan ne-ne qirg‘inbarot urushlarning million-million qurboni, qatliomlarning begunoh jabrdiydalari unut bo‘lib ketadi... Har qanday urush, eng avval, tinch aholi boshiga behisob kulfat, azob-uqubatlar olib keladi. Urush kelib chiqishiga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan begunoh kishilarning, norasidalarining yostig‘i quriydi. Afsuski, bu qurbonlar umumiy bir tarzda eslanadi, xolos. Gitler, Napoleon,

yoisini to‘la saqlab qolish, inson hayotini har tomonlana mazmunli qilish mumkinligini aytadi. Buning uchun umumiy maqsad, kuchli iroda, birlik, hamjihatlik, yaxshi qo‘shnichilik kerak, xolos.

O‘zbekiston davlatlar orasida yuzaga kelgan, kelayotgan favqulodda murakkab vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish, jabrdiydalarga huquqini himoyalash, XXI asrning sharmandali odamkushliklariga chek qo‘yish tarafdori. Davlatimiz rahbari 2024-yil 11-noyabr kuni navbatdan tashqari bo‘lib o‘tgan Arab-islom qo‘shma sammitida ishtirok etib, tinchlik, totuvlik bilan bog‘liq bir necha tashabbusni ilgari surdi. Prezidentimiz O‘zbekiston ushbu hududda tinch va xavfsiz muhit yaratish tarafdori ekanini, islom dunyosi bilan birga Yaqin Sharq muammolarini tinch yo‘l bilan hal qilishga tayyorligini bildirdi. Tobora murakkablashib borayotgan ko‘p yillik nizomi hal etish, jabrdiydalarga gumanitar yordam ko‘rsatish, noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarni beshikast saqlab qolish zarurligini uqtirdi. Urushda jabrlangan bir guruh falastinlik bolalar va ayollarni mamlakatimiz shifoxonalarida beg‘araz davolashga tayyor ekanini ma’lum qildi.

Bu savoxat jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida amalga oshdi. O‘zbekistonga falastinlik 100 nafar bola va ayollar olib kelindi. Faqat shu emas. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan o‘tgan yillarda g‘oyat murakkab sharoitda o‘tkazilgan “Mehr” operatsiyalari doirasida Suriya, Iroq va Afg‘onistonda og‘ir ahvolga tushib, chorasiz qolgan 438 o‘zbekistonlik ayol va bola yurtga qaytarildi. Bunday operatsiya boshqa yana qayerda va qachon o‘tkazilganini eslash qiyin.

Yaqin-yaqingacha jahon hamjamiyatining O‘zbekiston haqidagi tasavvuri ancha tor edi. Dunyo tamadduni rivojiga bemisil hissa qo‘shgan alloma ajdodlarimizni demasa, bizni “ikki daryo oraliq‘ida paxta yetishtiradigan, ko‘li chaqqon terimchi bir xalq”, deguvchilar ko‘p edi. Bizga shu ko‘z bilan qarashardi. Endi dunyo xaritasida taraqqiyotning baland bosqichlari sari intilayotgan O‘zbekiston yangi maqomda ko‘zga tashlanmoqda. Davlatimiz rahbarining el-yurt manfaatli bilan mustahkam xalqchil siyosati zamirida oshkoralik, xalq bilan hamisha hamnafas bo‘lish, har bir fuqaroda millat va mamlakat taqdirini ko‘rish, har bir yoshni o‘z farzandidek tarbiyalash

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir: **Salim DONIYOROV**

MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-146. 35033 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasi chop etildi. Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhirlar: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy